

Ibratli umr

✘ Hayot dovonlar osha ilgarilanma harakat. Kimlardir u dovonlardan muvaffaqiyatli oshib o'tadi, kimdir esa yo'q. Mashaqqatli dovonlardan oshish esa hayotiy tajriba, aql-idrok va yetuk insoniylik fazilatlarini talab etadi. Ana shu xislatlarga ega bo'lgan inson o'zini chinakam baxtli sanaydi.

Ko'p yillardan buyon institutimizning "Gidravlika va gidroinformatika" kafedrasida samarali faoliyat yuritib kelayotgan Arifjanov Aybek Muxamedjanovich 4 yanvar kuni o'zlarining muborak 60 yoshini qarshiladilar.

Aybek Muxamedjanovich nafaqat olim, bag'rikeng, shirinso'z ustoz-murabbiy hamdir. Yetakchi olim, sifatida mana ko'p yildirki, institutda faoliyat yuritadilar, ular ilmiy rahbarligida 7 nafar fan doktori yetishib chiqqan bo'lib, hozirda sohaning yetuk mutaxxassisi sifatida faoliyat yuritmoqda. Ularning muallifligida 4 ta monografiya, 10 dan ortiq darslik, o'quv qo'llanmalari, 300 dan ortiq ilmiy ishlanmalar chop etilgan.

Respublikamizdagi kanallar va daryo o'zanlaridagi gidravlik jarayonlar, gidrotexnik inshootlarni loyqa bosishdan himoya qilish hamda Katta Farg'ona, Katta Andijon, Qarshi, Quyi Amudaryo, Mirishkor va boshqa shu kabi kanallarda olib borgan ilmiy tadqiqotlarining natijalari suv xo'jaligi sohasida dasturul-amal bo'lib xizmat qilmoqda. Ularning ilmiy ishlanmalari nafaqat Respublikada balki xalqaro miqyosda ham yuqori sovrinlarga loyiq ko'rilganligini alohida tahsinga loyiq. Ayniqsa "Yilning eng yaxshi o'quv adabiyoti", "Yilning eng yaxshi pedagogi" tanlovlaridagi yutuqlarining o'ziyoq xalqimizning jonkuyar farzandi ekanligidan dalolatdir.

Hurmatli Aybek Muhamedjanovich !

El-yurt hurmatini meros qilib bo'lmaydi. Unga faqat umr bo'yi halol, fidokorona mehnat qilib, yonib yashagan kishilargina erishadi. Sizni mana shunday kishilar toifasidan ekanligingizdan butun jamoamiz va do'stu-birodarlaringiz, yaqinlaringiz faxrlanadi. Sizga tangridan uzoq umr, sihat-salomatlik va mamlakatimiz ravnaqi yo'lida olib borayotgan kelajak faoliyatingizda kuch-quvvat va ulkan zafarlar tilaymiz!

Sizga samimiy hurmat va ehtirom bilan Toshkent irrigatsiya va qishoq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti jamoasi

Institut Matbuot kotibi